O‘ZBEKISTONDA HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTIKASI TIZIMIDA DAVLAT VA NODAVLAT TASHKILOTLAR HAMKORLIGINING O‘RNI

Sarmonov Toxir Gopirovich
O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi kurs boshlig‘i

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekistonda huquqbuzarliklar profilaktikasi tizimida davlat organlari va nodavlat tashkilotlar hamkorligining dolzarb masalalari tahlil etilgan. Huquqbuzarliklar profilaktikasining huquqiy asoslari, asosiy yo‘nalishlari va amalga oshirish mexanizmlari yoritilgan. Umumiy, maxsus, yakka tartibdagi hamda viktimologik profilaktika chora-tadbirlarining o‘ziga xos xususiyatlari, shuningdek, samarali profilaktika ishlarini amalga oshirishda fuqarolik jamiyati institutlarining ishtiroki masalalari ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Huquqbuzarliklar profilaktikasi, umumiy profilaktika, maxsus profilaktika, viktimologik profilaktika, jamoat tashkilotlari, nodavlat notijorat tashkilotlar, ijtimoiy-siyosiy barqarorlik, huquqiy madaniyat, reabilitatsiya, qayta ijtimoiylashtirish.

Hozirgi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan ijtimoiy-siyosiy islohotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida huquqbuzarliklar profilaktikasi tizimini takomillashtirish masalasi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Zero, jamiyatda qonun ustuvorligini ta’minlash, fuqarolarning xavfsizligini ishonchli himoya qilish va huquqbuzarliklarning oldini olish – mamlakatda ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta’minlashning asosiy shartlaridan biridir.

Mamlakatimizda huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasida olib borilayotgan davlat siyosatining huquqiy asosi yaratilgan. Bu borada qabul qilingan qonun hujjatlari tizimli ravishda takomillashtirilib borilmoqda. O‘zbekiston Respublikasining “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi qonuniga muvofiq: “Huquqbuzarliklar profilaktikasi – huquq-tartibotni saqlash hamda mustahkamlash, huquqbuzarliklarni aniqlash, ularga barham berish, shuningdek huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, bartaraf etish maqsadida qo‘llaniladigan huquqbuzarliklar umumiy, maxsus, yakka tartibdagi va viktimologik profilaktikasining huquqiy, ijtimoiy, tashkiliy va boshqa chora-tadbirlari tizimidir”.

Bugungi kunda mamlakatimizda huquqbuzarliklar profilaktikasi tizimining samaradorligini oshirish, bu sohadagi davlat va nodavlat tuzilmalari hamkorligini kuchaytirish hamda zamonaviy yondashuvlarni joriy etish muhim vazifalardan hisoblanadi. Mazkur maqolada ana shu masalalarga e’tibor qaratiladi.

Huquqbuzarliklar profilaktikasi tizimida davlat va nodavlat tashkilotlar hamkorligi masalalari ko‘plab olimlar va mutaxassislar tomonidan tadqiq etilgan bo‘lib, bu borada turli yondashuvlar va nazariy qarashlar mavjud.

Ijtimoiy-siyosiy barqarorlik – bu jamiyatning barcha sohalarida muvozanatni saqlash, ijtimoiy tizimning barqaror rivojlanishini ta’minlash hamda fuqarolarning tinch va osoyishta hayot kechirishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishdir. Bu jarayon o‘z ichiga iqtisodiy, siyosiy, madaniy va ijtimoiy sohalardagi barqarorlikni qamrab oladi va ularning o‘zaro uyg‘un rivojlanishini talab etadi.

Professor M.Qirg‘izboyev ta’kidlaganidek: «Ijtimoiy-siyosiy barqarorlik – bu jamiyatning turli qatlamlari o‘rtasidagi munosabatlarning uyg‘unligi, ijtimoiy totuvlik va hamjihatlikning ta’minlanganligi holatidir» (1). Bunday barqarorlik fuqarolar o‘rtasidagi o‘zaro hurmat va ishonchga asoslangan munosabatlarni, jamiyatdagi turli ijtimoiy guruhlar manfaatlarining

muvozanatini va davlat bilan fuqarolik jamiyati institutlari o‘rtasidagi samarali hamkorlikni nazarda tutadi.

Q.A.Saitqulov o‘z tadqiqotida ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar viktimologik profilaktikasi bo‘yicha faoliyatini takomillashtirish masalalarini o‘rgangan. Tadqiqotchi viktimologik profilaktika ishlarida davlat organlari bilan birga, nodavlat tashkilotlarning ham faol ishtirok etishi zarurligini ta’kidlab, bu borada amaliy takliflar ishlab chiqqan (3).

B.A.Matlyubov, A.S.Tursunov, A.K.Rasulev, S.B.Xujakulov, Sh.R.Gofurovlar tomonidan huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi nazariy va amaliy masalalar tadqiq etilgan. Ularning fikricha, “Huquqbuzarliklarning sodir etilish sabablari va ularga imkon beruvchi shart-sharoitlarni tahlil qilish quyidagi hollarda maqsadga muvofiq hisoblanadi: birinchidan, ilmiy-tadqiqot muassasalari yoki tadqiqotchilar tomonidan jinoyatchilikka qarshi kurashish samaradorligini oshirishga qaratilgan masala yoki mavzu bo‘yicha tadqiqotlar o‘tkazish; ikkinchidan, bevosita huquqbuzarliklarning oldini olishni amalga oshiruvchi amaliy organlar tomonidan profilaktik tadbirlar, huquqbuzarliklarning profilaktikasini rejalashtirish” (4).

A.Aslanov o‘z tadqiqotida zamonaviy axborot texnologiyalarining huquqbuzarliklar profilaktikasidagi ahamiyatini o‘rgangan. U ta’kidlaganidek: «Tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, huquqbuzarlik sodir etishga moyil va ulardan jabrlanib qolish ehtimoli yuqori bo‘lgan shaxslarni aniqlash, huquqiy ta’sir chorasini qo‘llash, ularning huquqiy ong va madaniyatini shakllantirish hamda ta’sirchan profilaktik chora-tadbirlarini olib borishda asosan xorij tajribasini o‘rgangan holda zamonaviy axborot texnologiyalardan unumli foydalanish zarurdir» (5).

B.Raimjonov giyohvandlikka qarshi kurashning dolzarb masalalarini o‘rganib, bu borada nafaqat davlat, balki fuqarolik jamiyati institutlarining ham faol ishtirok etishi zarurligini ta’kidlaydi. Muallifning fikricha, bu sohada samarali natijalarga erishish uchun kompleks yondashuv, davlat organlari va nodavlat tashkilotlarning muvofiqlashtirilgan harakatlari talab etiladi (6).

D.Mirzarayimov jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan xotin-qizlarni reabilitatsiya qilish va ijtimoiy moslashtirish imkoniyatlarini tahlil qilgan. Uning ta’kidlashicha: “Qayta ijtimoiylashtirish» atamasi shaxsning huquqiy jamiyatning to‘laqonli a’zosi bo‘lishga urinishini anglatadi. Jazodan ozod etilganlar uchun bu jarayon ozodlikdan mahrum qilish joylarida bo‘lgan paytdan boshlab boshlanadi va ular shaxsining kognitiv, hissiy va xulq-atvor sohalariga ta’sir qiluvchi murakkab jarayondir” (7).

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, huquqbuzarliklar profilaktikasi tizimida davlat va nodavlat tashkilotlar hamkorligi masalalari har tomonlama o‘rganilgan bo‘lsa-da, biroq bu sohada hali ham bir qator muammolar mavjud bo‘lib, ularning echimini topish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Huquqbuzarliklar profilaktikasining asosiy yo‘nalishlari

O‘zbekiston Respublikasida huquqbuzarliklar profilaktikasi tizimli ravishda amalga oshirilib, bu faoliyat quyidagi asosiy yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi: umumiy profilaktika, maxsus profilaktika, yakka tartibdagi profilaktika va viktimologik profilaktika.

Umumiy profilaktika chora-tadbirlari jamiyatning barcha a’zolariga qaratilgan bo‘lib, ular orqali aholining huquqiy ongi va madaniyati yuksaltiriladi, qonunlarga hurmat ruhi shakllantiriladi va ijtimoiy faollik rag‘batlantiriladi. Bu yo‘nalishda turli ma’rifiy tadbirlar, uchrashuvlar, davra suhbatlari va ommaviy axborot vositalari orqali targ‘ibot-tashviqot ishlari olib boriladi.

Maxsus profilaktika esa muayyan hudud yoki sohada huquqbuzarliklar sodir etilishi ehtimoli yuqori bo‘lgan hollarda qo‘llaniladi. Bunda kriminogen vaziyat yuqori bo‘lgan hududlar aniqlanib, u erlarda maxsus reydlar va tekshiruvlar o‘tkaziladi, tegishli profilaktik chora-tadbirlar amalga oshiriladi.

Yakka tartibdagi profilaktika aniq shaxslar bilan ishlash bo‘lib, bunda huquqbuzarlik sodir etishga moyil bo‘lgan shaxslar aniqlanadi va ular bilan muntazam profilaktik suhbatlar o‘tkaziladi. Ularning xulq-atvoridagi o‘zgarishlar doimiy nazorat qilib boriladi va zarur hollarda yordam ko‘rsatiladi.

Viktimologik profilaktika huquqbuzarliklardan jabrlanish ehtimoli yuqori bo‘lgan shaxslarga qaratilgan. Bu chora-tadbirlar orqali fuqarolarning huquqiy savodxonligi oshiriladi, o‘zini himoya qilish usullari o‘rgatiladi va xavfsizlik choralari to‘g‘risida ma’lumotlar beriladi.

Viktimologik profilaktika doirasida aholini huquqbuzarliklardan himoya qilish uchun ishonch telefonlari tashkil etish, profilaktika dasturlarini jamoatchilik muhokamasiga qo‘yish va zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish orqali targ‘ibot ishlari olib boriladi. Bunda jabrlanuvchilarning jismoniy va psixologik xavfsizligini ta’minlash, ularni o‘zini o‘zi mudofaa qilish usullari bilan tanishtirish hamda xavfli hududlarni doimiy nazorat qilish choralari ko‘riladi.

Kriminogen vaziyat yuqori bo‘lgan hududlar doimiy nazorat ostiga olinadi. Bu joylarda profilaktika tadbirlari kuchaytiriladi. Aholiga zaruriy mudofaa va oxirgi zarurat holatlari to‘g‘risida huquqiy ma’lumotlar beriladi. G‘ayriijtimoiy xulq-atvor nisbatan tez-tez kuzatiladigan joylarda maxsus nazorat choralari joriy etiladi va profilaktika ishlari muntazam ravishda olib boriladi.

Huquqbuzarliklar haqida tezkor xabar berish uchun ishonch telefonlari va qutqaruv xizmatlari tashkil etiladi. Fuqarolarning murojaatlari asosida tegishli choralar ko‘riladi. Bundan tashqari, profilaktika dasturlari va tadbirlarini muhokama qilish uchun internet tarmog‘ida maxsus veb-saytlar, bloglar va chatlar tashkil etiladi. Zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda aholi orasida huquqiy targ‘ibot ishlari olib boriladi.

Nodavlat tashkilotlarning huquqbuzarliklar profilaktikasidagi o‘rni

Bu tizimning samarali ishlashi uchun davlat organlari, fuqarolik jamiyati institutlari va fuqarolarning o‘zaro hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Nodavlat notijorat tashkilotlar bu sohada quyidagi yo‘nalishlarda faoliyat olib boradi:

- huquqbuzarliklar profilaktikasiga doir davlat dasturlarini, hududiy va boshqa dasturlarni amalga oshirishda ishtirok etish. Bunda nodavlat tuzilmalar dasturlarning ishlab chiqilishi, muhokama qilinishi va amalga oshirilishi bosqichlarida faol qatnashadi. Ular dasturlarning loyihalarini ko‘rib chiqish, takliflar kiritish va amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha o‘z fikrlarini bildirish huquqiga ega;
- huquqbuzarliklarning oldini olish bo‘yicha davlat organlari bilan hamkorlik qilish. Hamkorlik doirasida qo‘shma tadbirlar o‘tkazish, axborot almashish va birgalikdagi loyihalarni amalga oshirish mumkin. Bunday hamkorlik doirasida nodavlat tuzilmalar huquqni muhofaza qiluvchi organlar, ta’lim muassasalari va boshqa davlat idoralari bilan birgalikda kompleks chora-tadbirlarni amalga oshiradi;
- fuqarolarning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan tadbirlarda ishtirok etish. Bu yo‘nalishda aholining turli qatlamlari uchun maxsus o‘quv dasturlari, treninglar va ma’rifiy tadbirlar tashkil etiladi. Bu tadbirlar orqali fuqarolarga ularning huquq va majburiyatlari, qonunlarga rioya qilish zarurligi va huquqbuzarliklarning oqibatlari to‘g‘risida ma’lumotlar etkaziladi;
- huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risidagi qonunchilikning ijro etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish. Bu jarayonda ular monitoring o‘tkazish, tahliliy materiallar tayyorlash va tegishli tavsiyalar ishlab chiqish huquqiga ega. Jamoatchilik nazorati doirasida ular huquqbuzarliklar profilaktikasi bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlarning samaradorligini baholash va kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan takliflar kiritishi mumkin.

Shu bilan birga, davlat organlari ularga zarur tashkiliy-huquqiy va uslubiy yordam ko‘rsatadi, faoliyatini qo‘llab-quvvatlaydi va samarali hamkorlikni ta’minlaydi. Bu yordam nodavlat tuzilmalarning salohiyatini oshirish, ularning faoliyatini takomillashtirish va samaradorligini kuchaytirishga qaratilgan. Bunday hamkorlik huquqbuzarliklar profilaktikasi tizimining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi va jamiyatda qonun ustuvorligini ta’minlashga yordam beradi.

Giyohvandlik va ichkilikbozlikka qarshi kurashish chora-tadbirlari

Huquqbuzarliklar profilaktikasi tizimida alohida yo‘nalish sifatida giyohvandlik va ichkilikbozlikka qarshi kurashish masalasi shakllantiriladi. Bu yo‘nalish nafaqat ijtimoiy muammo, balki jamiyat xavfsizligiga tahdid soluvchi jiddiy masala sifatida e’tirof etilmoqda. Buning sababi

shundaki, bu illatlar jamiyatning barcha qatlamlariga ta’sir qilish xususiyatiga ega. Zero, giyohvandlik va ichkilikbozlik nafaqat alohida shaxslarning sog‘lig‘iga, balki butun jamiyat barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi illatdir. Bu muammolar oilaviy munosabatlarning izdan chiqishiga, mehnat unumdorligining pasayishiga va ijtimoiy taraqqiyotning susayishiga olib keladi.

Shunday ekan, ushbu sohadagi asosiy chora-tadbirlar giyohvandlik va ichkilikbozlikka mubtalo bo‘lgan bemorlarga narkologik tibbiy yordam ko‘rsatish va ijtimoiy-tibbiy reabilitatsiya tizimini takomillashtirishga qaratilgan. Bu jarayonda zamonaviy xalqaro tajriba o‘rganilib, ilg‘or usullar joriy etilmoqda. Zamonaviy tibbiyot usullaridan foydalangan holda, bemorlarning jismoniy va ruhiy sog‘lig‘ini tiklashga alohida e’tibor berilmoqda. Davolash jarayonida nafaqat tibbiy, balki psixologik yordam ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu jarayonda nafaqat davolash muassasalari, balki ijtimoiy himoya organlari, mahalliy hokimiyat idoralari va jamoat tashkilotlari ham faol ishtirok etmoqda. Jamoat tashkilotlari profilaktika ishlarida, ma’rifiy tadbirlarda va reabilitatsiya jarayonlarida faol qatnashmoqda. Ularning har biri o‘z vakolati doirasida muayyan vazifalarni bajarib, yagona maqsad sari harakat qilmoqda. Bu vazifalar aniq reja asosida taqsimlangan bo‘lib, ularning bajarilishi doimiy nazorat qilib boriladi. Shu bilan birga, bu faoliyat turlarini tashkiliy, huquqiy-me’yoriy va resurs jihatidan ta’minlashni yaxshilash masalasiga ham katta e’tibor qaratilmoqda. Bu borada zarur moliyaviy mablag‘lar ajratilib, moddiy-texnik baza mustahkamlanmoqda.

Sobiq mahbuslarni ijtimoiy moslashtirish

Sobiq mahbuslarni ijtimoiy moslashtirish dasturi doirasida ularga kasbiy yo‘naltirish xizmatlari ko‘rsatilmoqda. Bu xizmatlar professional mutaxassislar tomonidan amalga oshirilib, zamonaviy metodikalar asosida olib boriladi. Bu jarayonda mehnat bozorining joriy talablari hisobga olinib, zamonaviy kasblarga o‘qitish yo‘lga qo‘yilgan. Kasbiy tayyorgarlik jarayonida nazariy bilimlar bilan birga amaliy ko‘nikmalarga ham katta e’tibor beriladi. Bu esa sobiq mahbuslarning ish topish imkoniyatlarini oshiradi va ularning jamiyatga qayta integratsiyalashuvini engillashtiradi.

Dastur doirasida sobiq mahkumlarga uy-joy, salomatlik, ta’lim va boshqa ijtimoiy xizmatlardan foydalanishda ham yordam ko‘rsatiladi. Bu ishlarning barchasi ularning to‘laqonli hayotga qaytishlari uchun imkoniyat yaratadi. Shu bilan birga, ruhiy-psixologik yordam xizmatlari ham yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, bu xizmatlar orqali sobiq mahbuslarning ruhiy holatini yaxshilash, stressni bartaraf etish va o‘z kuchiga ishonch hissini uyg‘otish choralari ko‘riladi.

Huquqbuzarliklar profilaktikasi bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar natijalari

Profilaktika ishlariga alohida e’tibor qaratilib, 5 672 nafar yoshlar va 4 324 nafar ayollar bilan mahallalarda, ta’lim muassasalari, korxona va tashkilotlarda 1 370 marotaba keng qamrovli profilaktik tadbirlar o‘tkazildi. Bu tadbirlarda huquqbuzarliklarning oldini olish, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish va ijtimoiy faollikni oshirish masalalari muhokama qilindi. Tadbirlarga soha mutaxassislari, psixologlar, huquqshunoslar va tajribali pedagoglar jalb etildi. Ular tomonidan amaliy maslahatlar berilib, turli hayotiy vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish ko‘nikmalari o‘rgatildi.

O‘tkazilgan tadbirlar natijasida aholi o‘rtasida huquqiy ong va madaniyat darajasi sezilarli darajada oshdi, huquqbuzarliklarning oldini olish bo‘yicha fuqarolarning bilim va ko‘nikmalari shakllandi. Bu esa o‘z navbatida, jamiyatda qonun ustuvorligini ta’minlash va fuqarolarning huquqiy ongini yuksaltirishga xizmat qilmoqda.

Huquqbuzarliklar profilaktikasi samaradorligini oshirish uchun muntazam ravishda uning huquqiy, tashkiliy va institutsional asoslarini takomillashtirib borish taqozo etiladi. Bu jarayonda fuqarolik jamiyati institutlarining faol ishtiroki hamda davlat organlari bilan ularning samarali hamkorligini ta’minlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Huquqbuzarliklar profilaktikasi tizimida nodavlat tashkilotlarning ishtiroki alohida o‘rin tutadi. Nodavlat notijorat tashkilotlar huquqbuzarliklarning oldini olish, fuqarolarning huquqiy ongini yuksaltirish va jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda faol qatnashmoqda. Bu jarayonda ularning salohiyati va imkoniyatlaridan yanada samarali foydalanish uchun davlat tomonidan zarur shart-sharoitlar yaratilmoqda.

Huquqbuzarliklar profilaktikasi tizimining asosiy yo‘nalishlari – umumiy profilaktika, maxsus profilaktika, yakka tartibdagi profilaktika va viktimologik profilaktika o‘zaro bog‘liq bo‘lib, ular bir-birini to‘ldiradi va yagona tizimni tashkil etadi. Bu tizimning samarali ishlashi uchun barcha subyektlarning muvofiqlashtirilgan harakatlari talab etiladi.

Giyohvandlik va ichkilikbozlikka qarshi kurashish, shuningdek, sobiq mahbuslarni ijtimoiy moslashtirish masalasi huquqbuzarliklar profilaktikasining muhim yo‘nalishlari hisoblanadi. Bu sohalarda amalga oshirilayotgan ishlarning samaradorligini oshirish uchun ilg‘or xalqaro tajribani o‘rganish va qo‘llash, shuningdek, zamonaviy yondashuvlarni joriy etish zarur.

Yuqoridagi tahlillar va xulosalar asosida quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

1. Huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasida davlat va nodavlat tashkilotlar hamkorligini yanada rivojlantirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi «Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida»gi qonuniga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish taklif etiladi. Xususan, nodavlat notijorat tashkilotlarning huquq va majburiyatlarini yanada aniqlashtirish, ularning faoliyatini qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish lozim.

2. Mahallalarning huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi salohiyatini oshirish uchun maxsus me’yoriy hujjatlar ishlab chiqish va qabul qilish, ularning faoliyatini moliyaviy va moddiy-texnik jihatdan qo‘llab-quvvatlash choralarini kuchaytirish taklif etiladi.

3. Axborot texnologiyalarining huquqbuzarliklar profilaktikasidagi rolini kuchaytirish maqsadida yagona axborot tizimini yaratish va unda barcha profilaktika sub’ektlarining faoliyatini muvofiqlashtirish mexanizmlarini yo‘lga qo‘yish lozim. Bu tizim orqali aholiga huquqiy ma’lumotlar taqdim etish, murojaatlarni qabul qilish va ko‘rib chiqish jarayonlarini avtomatlashtirish mumkin.

4. Huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasida ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish, bu yo‘nalishda ixtisoslashgan ilmiy-tadqiqot markazlarini tashkil etish va ularning faoliyatini qo‘llab-quvvatlash lozim. Bu markazlar orqali huquqbuzarliklar profilaktikasining nazariy va amaliy masalalarini tizimli ravishda o‘rganish, ilg‘or xalqaro tajribani tahlil qilish va milliy sharoitga moslashtirish imkoniyati yaratiladi.

5. Giyohvandlik va ichkilikbozlikka qarshi kurashish, shuningdek, sobiq mahbuslarni ijtimoiy moslashtirish sohasida alohida davlat dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish taklif etiladi. Bu dasturlarda fuqarolik jamiyati institutlarining faol ishtirokini ta’minlash, ularning salohiyatidan samarali foydalanish mexanizmlarini nazarda tutish zarur.

6. Huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, xorijiy mamlakatlarning ilg‘or tajribasini o‘rganish va qo‘llash imkoniyatlarini kengaytirish. Bu yo‘nalishda xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalarini mustahkamlash, qo‘shma loyihalarni amalga oshirish va tajriba almashish jarayonlarini faollashtirish lozim.

Xulosa qilib aytganda, huquqbuzarliklar profilaktikasi tizimida davlat va nodavlat tashkilotlar hamkorligini kuchaytirish, barcha fuqarolarning bu jarayondagi ishtirokini ta’minlash orqali jamiyatda qonun ustuvorligini ta’minlash, fuqarolarning huquqiy ongini yuksaltirish va ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni mustahkamlashga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Qirg‘izboyev M. Fuqarolik jamiyati: nazariya va xorijiy tajriba. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006. – B. 142.

2. O‘zbekiston Respublikasining “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonuni. 2014-yil 14-may // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2014-y., 20-son, 221-modda.

3. Saitqulov Q.A. Ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar viktimologik profilaktikasi bo‘yicha faoliyatini takomillashtirish. yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – T:. O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi. 37-b.

4. Б.А.Матлюбов, Турсунов А.С., Расулев А.К., Хужакулов С.Б., Гофуров Ш.Р. Профилактика правонарушений. /Ответственный редактор Б.А. Матлюбов/– Т.: – Т.: Академия МВД Республики Узбекистан, 2020. С. 216.

5. Aslanov B.T. Huquqbuzarlik sodir etishga moyil shaxslar bilan ishlash faoliyatini tashkil etish: Monografiya.– T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2024. B.108.

6. Raimjonov B. Giyohvandlikka qarshi kurashning dolzarb masalalari. //Scientific Progress. 2022; 3(4). B.17-22.

7. Mirzarayimov D. Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan xotin-qizlarni reabilitatsiya qilish va ijtimoiy moslashtirish imkoniyatlari//Scientific Progress. Volume 4/Issue 4/2023. B.266-274.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-maydagi «Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-3723-son qarori // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2018-y., 20-son, 406-modda.

9. Husanov O.T. Huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirishning huquqiy asoslari: O‘quv qo‘llanma. – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2021. – 184 b.

10. O‘zbekiston Respublikasining «Qamoqdan ozod qilingan shaxslar ustidan ichki ishlar idoralarining ma’muriy nazorati to‘g‘risida»gi Qonuni. 1999-yil 9-dekabr // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2000 y., 1-son, 11-modda.

11. Kriminologiya: Darslik / G‘.A.Avanesov, E.F.Pobegaylo, V.E.Eminov va boshq. E.F. Pobegayloning umumiy tahriri ostida. – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2015. – 415 b.

12. Ismailov I., Qosimov K. Huquqbuzarliklar profilaktikasi va voyaga etmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik hamda qarovsizlikni oldini olish: O‘quv qo‘llanma. – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2019. – 155 b.

13. Ziyadullayev M. Jinoyatchilikka qarshi kurashning xalqaro va mintaqaviy institutlari faoliyatining huquqiy asoslari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2017. – 205 b.

14. Urazayev Sh.Z. Ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyatida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishning istiqbollari // Huquq va burch. №4. 2022. – B. 44-47.

15. Crime Prevention & Criminal Justice: United Nations Office on Drugs and Crime https://www.unodc.org/unodc/en/justice-and-prison-reform/index.html